

YOSHLIK ,YETUKLIK VA KEKSALIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Panjiyeva Muxlisa Xo'shboq qizi

Aliyeva Sarvara Nemat qizi

Termiz davlat pedagogika insitituti Tabiiy fanlar

fakultiteti Kimyo ta'lim yo'nalishining

1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh davrlari; yoshlik, yetuklik, va keksalik davrlarida kechadigan psixologik xususiyatlari, bu davrlarda shaxs rivojlanishida boradigan biologik, psixologik, psixik, sotsiologik o'zgarishlar va jarayonlar haqida malumotlarni bilib olamiz.

Kalit so'zlar: Yetuklik davri, yoshlik davri, gerontopsixologiya, involyusiya, gerogigiya, geriatriya, gerontologiya, geteroxronik.

Аннотация: В данной статье возрастные периоды; мы узнаем информацию о психологических особенностях молодости, зрелости и старости, биологических, психологических, психологических, социологических изменениях и процессах, происходящих в развитии человека в эти периоды.

Ключевые слова: Подростковый возраст, юношество, геронтопсихология, инволюция, герогигиена, гериатрия, геронтология, гетерохронность.

Abstract: In this article age periods; we will learn information about the psychological characteristics of youth, maturity and old age, the biological, psychological, psychological, sociological changes and processes that take place in the development of a person during these periods.

Key words: Adolescence, youth, gerontopsychology, involution, gerohygiene, geriatrics, gerontology, heterochronic.

Biz, faqat o'zimiz uchungina yashay olmaymiz- deb yozadi, mashhur ro'mannavis yozuvchi German Melvill,- bizning hayotimiz boshqalarning hayoti bilan bir-biriga minglab rishtalar bilan chambarchas bog'langandir".

Bugun yurtimizda mustaqil huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar o'zlikni anglash imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy intellektual aqliy amaliy rivojlanish uchun yangi shart- sharoitlar yaratib bermoqda. Bu esa o'z navbatida insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarga insonning o'ziga yangicha munosabat va yondoshuvni talab qiladi. Yangicha yondoshuvlar

Yosh davrlar va pedagogik psixologiya fanining obekti va predmeti ko‘lamini kengayishiga olib keladi. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya fanlari faqat yosh davrlar klasifikatsiyasi, yosh davrlarni psixik rivojlanish taraqqiyotini o‘rganib ilmiy-nazariy, uslubiy –amaliy ta‘minlovchi fan emas balki komil inson shakillanishini rivojlanishini taminlovchi keng sohalarni o‘z ichiga oladi. Yoshlik davri 23-28 yoshlardah iborat bo‘lib bu davrning o‘ziga xos *xususiyatlaridan* biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamol erishgan shaxs sifatida faolishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. Psixofiziolog P.P Lazarev fikricha, eshitish, ko‘rish, perifyrik va kinestetik sezgilarning o‘zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. B.G Ananev o‘zining ilmiy tatqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o‘zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiy ruhiy holat, verbalva no verbal aqliy soda jaroyonlargacha, hatto shaxsning xususiyatigacha bo‘lgan holatlarni o‘z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy malumotlar va ularning chuqur sifat tahlili orqali ko‘rsatib o‘tadi.

Yetuklik davrida shaxsning rivojlanishi psixologiyadagi kam o‘rganilgan muammolardan biridir. Masalan, psixoanalitik nazariyalar shaxs anomaliyalariga, patologik variantlariga e‘tibor qaratadi. Norma kasallik belgilarining yo‘qligi sifatida qaraladi. Boshqa yo‘nalish, gumanistik psixologiya vakillari o‘zligini namoyon qilgan mashhur shaxslarni absolutlashtiradi.

Yoshlik davrida yigit va qizlar kamolotiga uchta muhim psixologik mexanizm, yani mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmi ulfatlar ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, manaviyat olami, barqarormaslik, ijtimoiy ong ijtimoiy qadriyatlar, muayyan ananalar va odatlar yangi azolarning harakterida ijobiy yoki salbiy o‘zgarishni vujudga keltirishi mumkun.

Ayrim hollarda ko‘p chilikning taziyyiqiga uchragan shahsda qatiylik, adolatlilik singari xislatlar shaxsiy nuqtaiy nazar bo‘shashib qoladi natijada unda ikqilanish tuyg‘isi paydo bo‘ladi.

Yetuklik davrining birinchi bosqichiga 28-35 yoshlardagi erkak va ayyollar kiradilar. Yetuklik bosqichida jismoniy va aqliy imqoniyatlardan to‘laroq foydalanish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Y.Kulytkin tadqiqotining natijasiga qaraganda , 30-35 yoshlarda diqqat 102,8 xotira 99,5 tafakkyr 102,3 birlikda baravardir. Maskur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g‘alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta‘sir etadi. Natijada unda takabburlik, mag‘rurlik hislari paydo bo‘ladi, o‘zini boshqalardan ustun qo‘ya boshlaydi yoki, aksincha, hayot

zahmatlari uning pessimist, narsa vahodisalarga nisbatdan loqaydlik tuygʻusini vujudga keltiradi. Lekin har ikkala koʻrinishga ega boʻlgan ruhiy holat ham oila azolari, tenqurlari, mehnat jamoasi azolarining taʼsiri orqali asta-sekin myayyan yoʻnalishga tushib qoladi. Yetuklikning bosqichlari turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Yetuklik davrini birinchilardan boʻlib davrlashtirgan Sh.Byuler oʻz-oʻzini aniqlashni asos qilib, yetuklikning beshta bosqichini ajratgan:

Birinchi bosqich (16—20 yosh) shaxsiy oʻz-oʻzini belgilashdan oldin keladi.

Ikkinchi bosqich (16—20 yoshdan 25—30 yoshgacha) — urinib koʻrish va izlash bosqichidir (kasb, umr yoldosh va b.). Bu davrda hayotiy maqsadlar noreal boʻlib, oʻzgarib turadi.

Uchinchi bosqich (25—30 yoshdan 45—50 yoshgacha) — yetuklik davri: inson hayotda oʻz oʻrnini topadi, oila quradi. 40 yoshlarda shaxs oʻzining hayotda erishgan natijalariga qarab oʻzini baholay boshlaydi.

Toʻrtinchi bosqich (45—50 yoshdan 65—70 yoshgacha) — qartayayotgan inson, kasbiy faoliyatning tugashi, maqsadlar qoʻyish va faol oʻz-okzini belgilashning yoʻqolishi.

Beshinchi bosqich (70 yoshdan keyin) — qari inson: oʻtmishni eslash va tinchlikni xohlash.

Mashhur gollandiyalik psixolog va psixoterapevt B.Divexud

kattalar hayotidagi 7 yillik bosqichlarni ajratgan Uotering davrlashtirishini misol sifatida keltiradi:

21—28 yosh — hayotiy bazisni egallash;

28—35 yosh — topilgan hayot asoslarini tasdiqlash;

35—42 yosh — ikkinchi jinsiy yetilish, kasbiy maqsadlarga yoʻnalganlik;

42-49 yosh - maniakal-depressiv davr;

49—56 yosh — shaxsiy qartayish bilan kurash;

56—63 yosh — donolik;

63—70 yosh — oʻz hayotida yana muvaffaqiyatga erishish mumkinligini anglash, «ikkinchi yoshlik» imkoniyati.

Lekin inson hayot yoʻlini bunday davrlashtirish tavsiflovchi xarakterga ega boʻlib, jiddiy empirik asoslarga ega emas. Yetuklik davrida shaxsning rivojlanishi psixologiyadagi kam oʻrganilgan muammolardan biridir. Masalan, psixoanalitik nazariyalar shaxs anomaliyalariga, patologik variantlariga eʼtibor qaratadi. Norma kasallik belgilarining yoʻqligi sifatida qaraladi. Boshqa yoʻnalish, gumanistik

psixologiya vakillari o'zligini namoyon qilgan mashhur shaxslarni absolutlashtiradi. Qarilikning birinchi davri gerontogenez yoki keksayish davri deb ataladi. Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, bu davr 60 dan keyin boshlanadi.

Gerontopsixologiya psixologiya fanining tarkibiy qismi ekanini ilmiy jihatdan S.Xoll asoslagan bo'lsa-da, lekin bu yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Mark Tulliy Sitseron ("Katta Katon yoki keksayish haqida" asarida), I.I.Mechnikov ("Optimizm etyudlari" kitobida), O'rta Osiyo allomalari donolik, donishmandlik haqidagi durdonalarida falsafiy fikr va muyaohazalarni bildirganlar. Amerikalik psixolog S.Xoll (1846— 1924) "Keksayish" monografiyasida amaliy va metodologik ahamiyatga molik qator g'oyalarni ilgari surgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki inson psixikasining shakllanishida barcha omillar muhim hisoblanadi .Lekin yoshlik,yetuklik va keksalik davrlarida biologic omillarning darajasi bir muncha pasayadi .Sababi bu yosh davrlarida shaxs psixik ,biologic jihatdan shakllanib bo'lgan hisoblanadi .yana shuni alohida ta'kidlash joizki insonlarning shaxs sifatida shakllanishida bu yosh davrlarga bo'lish qolib emasligini ya'niy yuqorida o'rganilgan yosh davrlariga bo'lish hamma shaxslarda bir xil kichadi degani emasligini ko'rib chiqdik .Demak inson hayoti mukammalligini bilib oldik .Hech kim hech qachomn insonning shaxs sifatida shakllanishini belgilab berolmasligiga amin bo'ldik .

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ashurova, S. (2023). SOG 'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO 'G 'RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 2.Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS'PEDAGOGICAL ABILITY. *Academia Repository*, 2(11), 46-53.
3. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.
- 4.qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHLTLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9 SPECIAL), 418-421.

5. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.
6. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
7. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
8. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99-102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/arti>
9. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99-102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
10. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
11. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 18-22. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> Zamira Opa Ish, [24.04.2024 15:08]
13. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Academia Repository, 4(10), 1-9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>
14. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>